



ILMIY MATNLARDA AXBOROT UZATISHDA KO'RSATISH HOLATLARINING ISHTIROKIGA DOIR

Shermatov Akram Abduxakimovich

Samarqand davlat chet tillar instituti, dotsent

Tel: +99890 742 14 36

Email: akramshermatov76@gmail.com

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada ilmiy matnlarda axborot uzatishda aynan ko'rsatish holatlarining ifodalanishi, pragmatik mazmun-mohiyati, muallif hamda o'quvchi o'rtasidagi ilmiy kommunikatsiyaning jarayonlashuvi, axborot uzatishda deytik so'zlarning vazifalari, ko'rsatishning pragmatik maqsadlari haqida fikrlar o'rin olgan.*

***Kalit so'zlar:** ilmiy matn, ko'rsatish, pragmatika, axborot, muallif, deytik.*

KIRISH.

Ingliz ilmiy-texnik matnlarida ham o'zbek ilmiy matnlarida ham nutqning shaxs-subyektini eksplitsit belgilash bilan bir qatorda, implitsit ko'rsatish misollari ham ko'p uchray turadi. Mashhur tilshunos olim Sh.Balli "...ilmiy til faqat katta shartlar bilangina tafakkurning alohida ahamiyatga ega bo'lgan obyektiv, shaxssiz faoliyatining in'ikosi sifatida tadqiq qilinishi mumkin..." deya ta'kidlagan (Balli, 1961:114).

Shu jihatdan olganda har qanday matnga (shu jumladan, ilmiy matnga ham) muallif munosabati xosdir, chunki u borliqning har bir inson tomonidan subyektiv anglash natijasidir. Shu o'rinda so'zlovchining nutq predmetiga munosabati faqat eksplitsit shakllar bilangina ifodalanib qolmasdan, balki subyektini boshqa vositalar yordamida implitsit ko'rsatish imkoniyati ham mavjud. Bunday holatda nutq subyektini bevosita ko'rsatilmagan, bayon adresatni muallif maqsadini tushunishga qaratadi. Muallif ushbu jarayondagi ifodalanayotgan axborotga shu yo'sindagi munosabati orqali jarayon ichida ishtirok etgan ayrim sintaktik iboralar, modal va baholash ma'nosidagi so'zlar yordamida aniqlashtiriladi. V.E. Chernyavskaya ilmiy matnning kompozitsion-pragmatik segmentlarining quyidagi turlarini belgilaydi: tadqiqot mavzusi/predmetining xususiyatlari; masalaning tarixi; tadqiqot maqsadi va vazifalarini belgilash, muammoni shakllantirish, gipotezalarni ilgari surish; dalil; eksperiment tavsifi; xulosalar; ilmiy prognoz (Chernyavskaya, 2007:69-71). Ilmiy matnning mazmuni verballashgan bilim hisoblanadi. V.G. Admonining tasnifiga ko'ra, nutqiy kommunikatsiyaning turli aspektlarini aniqlashga asoslangan ilmiy matn utilitar matnlarga tegishli bo'lib, u quyidagi spetsifik xususiyatlarga ega: u tabiat haqidagi inson bilimlarini taqdim etadi, buni fanga turli darajada singdirish bilan amalga oshiradi, tegishli fanga muvofiq ishlab chiqilgan kodlardan foydalanadi. Funktsional parametrlari bo'yicha u odamlar o'rtasida axborot almashish vositasi bo'lib xizmat qiladi (Filippov, 2007:119).

Ilmiy matn tarkibida nutq muallifi va adresatini implitsit ko'rsatadigan vositalar tarkibiga muallifning o'quvchini harakatga bilvosita undashini kiritish mumkin (Zvereva, 1985:217). Ma'lumki, tinglovchini biror bir harakatga undovchi buyruq gaplar axborotni uzatuvchi va qabul qiluvchining mavjud bo'lishini taqozo etadi. Ammo ilmiy muloqotda buyruq mazmunidagi axborot uzatilayotganda ish-harakat bajaruvchining shaxsi emas, balki faoliyatning o'zi yoki ilmiy-tadqiqot ishida diqqat markazida turadigan ushbu faoliyat natijalari ta'kidlanadi. Ilmiy-texnik matnda bilvosita buyruqni ifodalash uchun hohish-istakni bildirgan ot, fe'l yoki sifat (*demand, requirement, propose, recommend, suggest, necessary, desirable, etc...*) bilan bog'lanadigan ergash gaplar qo'llaniladi. O'zbek ilmiy matnlarida ham mazkur holat orqali o'quvchiga biror bir tavsiya, taklif ma'nolarini (*mumkin, shart, kerak, tavsiya etiladi, zarur, talab etiladi, ...*) kabi so'zlar bilan ifodalanishi mumkin.

It is recommended that an accelerator be used to measure vibrational levels...
(The Astrophysical Journal. -P.785)



It is therefore highly desirable that large-scale quantum-mechanical calculations...be performed... (The Astrophysical Journal. -P.91)

Ushbu usul uchta asosiy funktsiyani amalga oshiradi: taglikning tayanch elementlari, saqlash devorlari va filtratsiyaga qarshi himoya qatlamlari. Taglikning tayanch elementlari va saqlash devorlari albatta armaturalanishi shart. (Ilmiy-texnik konferensiya materiallari to'plami. -B.28)

Bunda ushbu armatura sterjnini to'g'ridan-to'g'ri plita ustiga qo'ymasdan, beton qorishmasi bilan o'ralishiga va ikki tomonidan himoya qatlami bo'lishiga ahamiyat berish kerak. (Ilmiy-texnik konferensiya materiallari to'plami, -B.38)

Ushbu turdagi sintaktik qurilmalar ilmiy matnlarda ko'p miqdorda uchraydi, chunki ular ilmiy matnlarda axborotning umumlashgan va egasiz ma'lum qilinishi xususiyatiga mos keladi. Bundan tashqari, matnning pragmatik mazmuni so'roq gaplarda ham o'z ifodasini topadi (Nistratova, 1985:94). So'roq gaplarning buyruq gaplarga yaqinligi shundan iboratki, ikkala turdagi gaplar ham “tinglovchini javob berishga bevosita undaydi” (Smirnitkiy, 1957:258). So'roq gaplar axborotni talab qilib, o'quvchi javobining zarurligini taqozo etadi (Xaynazarova, 1999:11). Semantik tavsif sintaktik tushuncha sifatida qaraladigan so'roq gapni ma'lum turdagi axborotni talab qilayotgan so'roq nutqiy faoliyatidan farqlash ehtiyojini tug'diradi (Paducheva, 1985:233). So'roq gapning ilmiy matnlarda qo'llanishi ilmiy uslub xususiyatidan kelib chiqadigan ba'zi bir jihatlari bilan farqlanadi. Ilmiy muloqotda so'roq, odatda, dialogik muloqot maqsadida emas, balki material bayonining ifodaliligini oshirish, o'quvchiga ta'sirini kuchaytirish va uning diqqatini muallif fikriga jalb qilish uchun xizmat qiladi. So'roq gaplar matn tarkibida o'quvchi diqqatini faollashtirish, ma'lum qilinayotgan mavzu haqida o'ylashga undovchi mediativ, munozaraga tortuvchi polimek, matnda gap oldindan nima haqida borishini xabar qiluvchi ogohlantirish, muallifning axborotga xususiy munosabatini ko'rsatuvchi modus funktsiyalarini bajaradi (Hakimov, 1993:10-11). Ham ingliz ham o'zbek tilidagi ilmiy matnlarda so'roqning mazmuni, odatda muammoning qo'yilishiga, tadqiqot qismlarini aniqlashga daxldor bo'lib, bunda muallif o'quvchi e'tiborini faktik material tavsifiga tortishga harakat qiladi:

If, in fact, streaming instability is necessary for the pulsar radiation mechanism-whether by coherent curvature or a plasma-type process will this constrain the conventional pulsar model? (The Astrophysical Journal. -P.261)

Zilzila kuchi poydevor va yuk ko'taruvchi konstruksiyalar orqali uzatilib, binolarning yangi yoki eskiligidan qat'iy nazar ko'plab shikastlanish va yemirilishlarga asos bo'ladi. Ayniqsa, eski me'yoriy qoidalar va davr talablari asosida qurilgan binolar zilzila va favquloddagi vaziyatlarda xavfli ob'ektlarga aylanib qolmaganmi? Xususan, g'ishtdan tiklangan binolar zilzilabardoshligi ta'minlanganmi? (Ilmiy-texnik konferensiya materiallari to'plami. -B.385)

Ko'pincha bilvosita so'roqlar ilmiy bayonning yozma uslubiga eng qulay mos tushadigan ko'rinishda uchraydi:

The question now is what information this would give us about the mass distribution. (The Astrophysical Journal. - P.52)

.....faol bo'lgan o'quvchi tekislik silliqmi yoki g'adir-budurmi, jism yuqoridan pastga yoki pastdan yuqoriga xarakatlanadimi kabi savollar bilan masalani yanada aniqlashtiradi..... (Ilmiy-texnik konferensiya materiallari to'plami. -B.125)

Muallif o'z fikrini bevosita yoki bilvosita so'roq tarzida ifodalash bilan o'quvchini bildirilayotgan axborotni tahlil qilishga, ushbu mulohaza jarayonida bor bilim va tajribasidan foydalanishga undaydi. Bu o'z navbatida qabul qilingan axborotni o'quvchining umumiy bilim majmuasining ma'lum qismiga aylanishiga imkon yaratadi.

Shunday qilib, yuqoridagi ta'kidlab o'tilgan mulohazalar nutq shaxsiga ishora bilvosita amalga oshishiga imkon yaratadi. Bunday matnlarda birinchi o'ringa ish-harakatni bajaruvchisi emas, balki kutilayotgan harakatning o'zi ildamlaydi. Ilmiy matn jarayonida o'quvchiga murojaat qilishning ushbu usulidan keng foydalaniladi, chunki u so'zlovchi va tinglovchini ilmiy uslub xususiyatiga mos tushadigan “matn ortida” ko'rsatishning pragmatik maqsadiga erishishni ta'minlaydi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Balli Sh. Fransuzskaya stilistika. –M.: Izd-vo inostr. lit., 1961. – S. 114.
2. Chernyavskaya V.E. Interpretatsiya nauchnogo teksta. -M.: URSS, 2007. – S. 69-71.
3. Filippov K.A. Lingvistika teksta. Kurs lektsiy. -SPb.: Izd-vo S-Peterburgskogo universiteta, 2007.- S. 119.
4. Hakimov M.X. O'zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlari: Filol. fan. nomz... diss. – Toshkent, 1994. -168 b.
5. Nistratova S.L. Sintaksicheskiye sredstva virajeniya adresovannosti v ustnoy nauchnoy rechi // Nauchnaya literatura. Yazik, stil, janry. –M.: Nauka, 1985. – S. 94.
6. Paducheva Ye.V. Viskazivaniye i yego sootnesennost s deystvitelnostyu (referentsialnye aspekti semantiki mestoimeniy). – M.: Nauka, 1985. – S. 233.
7. Shermatov A. Ingliz va o'zbek tillarida aniqlik hodisasini ifodalashda grammatikalizatsiyaning o'rni //Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit. – 2024. – C. 20-21.
8. Shermatov A. Some features of implicature in English and Uzbek literary texts //International Engineering Journal for Research & Development. – 2023. – T. 8. – №. 6. – C. 1-5.
9. Smirnitkiy A.I. Sintaksis angliyskogo yazika. – M.: Izd-vo lit. na inostr. yaz., 1957. – S. 258.
10. Xaynazarova M.M. So'roq gaplarda shakl va mazmun nomuvofiqligi: Filol. fanl. nomz....diss. avtoref. – Toshkent, 1999. – B. 11.
11. Zvereva Ye.A O virajenii znacheniya pobuditelnogo deystviya v angliyskix nauchnix tekstax // Nauchnaya literatura. Yazik, stil, janry. –M.:Nauka, 1985. – S. 217.
12. Шерматов А. Tilshunoslikda kommunikatsiya nazariyasi hamda uning jarayonlashuviga doir //Переводоведение и лингвистика в эпоху цифровых технологий: изучение передовых подходов. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 13-16.